

**ФАРЗАНДИНГГА КИТОБ ЮТИБ ОЛ!**

2-саҳифада



**ДИНИЙ БАРҚАРОРЛИК ВА ТИНЧЛИК КАФОЛАТИ**

3-саҳифада

**ТОВУШСИЗ ТАСАЛЛИ**

4-саҳифада




1925-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN

Biz — kelajak bunyodkorimiz!

O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

# YOSHLAR OVOZI

№10 (16315)

2019-YIL 6-FEVRAL, CHORSHANBA

O'zbekiston yoshlar ittifoqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazetasi

www.yoshlarovozi.uz yoshlarovozi@umail.uz @Yoshlarovozi

Сайтимизга ўтиш учун QR-кодини телефонингиз орқали сканер қилинг.

MUNOSABAT

## МАДАНИЯТЛИ БЎЛИШ

### *жўн ҳодиса эмас*

Халқимиз азалдан маданият тушунчаси, уни ёшларга ўргатишга алоҳида эътибор берган. Зеро, биз бугун фахр билан тилга оладиган бой маданий меросимиз ҳам ўз-ўзидан пайдо бўлмаган. Минг йилликлар давомида инсонийликнинг олий мезонлари сараланиб, "Ўзбек маданияти" деган хазина жам бўлган. Президентимизнинг 2018 йил 28 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги қарори эса, балки ана шу бой меросни нафақат асраб-авайлаш, уни келажак авлодга тўла-тўкис етказиб бериш учун муҳим қадам бўлди.

Маданият ва санъат ҳар бир даврда дунё халқларини бир-бирига яқинлаштирувчи восита бўлган. Миллий-маънавий маданиятимизни жаҳон маданияти ва санъати билан уйғун ҳолда ривожлантириш, унинг сара намуналарини кенг тарғиб қилиш ва оммалаштириш ёш авлодни маънавий тарбиялашнинг асосидир. Шу боис ҳужжатга мувофиқ энди икки йилда бир марта Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон давлат академик катта театрида "Опера ва балет санъати" халқаро фестивали ўтказилади. Ушбу нуфузли санъат анжуманида аҳоли, айниқса, ёшлар дунё маданиятининг дурдоналари билан танишиб, ўзининг маънавий тафаккурини бойитиши тайин.

Бугунги кунда юртимизда яратилган маданий ёдгорликлар, осор-атиқалар, бебаҳо санъат ва адабиёт намуналарини кўплаб мамлакатларнинг кутубхона, музей, маданий-маърифий муассасаларида учратиш мумкин. Масалан, Россиянинг маданий пойтахти, дунё шарқшунослик марказларидан бири Санкт-Петербург шаҳрида мамлакатимизга оид минглаб нодир экспонатлар, қўлёзмалар, Лувр музейида Мовароуннаҳр гиламчилик санъати намуналари сақланмоқда. Франция миллий кутубхонасидаги ўзбек маданиятига тегишли қўлёзмаларнинг ҳали қанчаси ўрганилмаган, кенг жамоатчиликка маълум қилинмаган. Шу жиҳатни ҳисобга олган ҳолда қарорда юртимиздан етишиб чиққан улуғ мутафаккирларнинг бой маданий меросини ўқиб-ўрганиш, тадқиқ этиш, тарих ва маданиятимизга оид хорижий давлатлардаги номоддий-маданий мерос элементларини ёзиб олиш, улар асосида "Ўзбекистон номоддий маданий мероси" тўпламини нашр этишга алоҳида эътибор қаратилган. Зеро, ўтмиши билан фахрланадиган, халқ закосидан баҳраманд бўлган авлод қора кучлар алдовига учмайди. Мазкур концепциядан кўзланган мақсад ҳам шу. Илло, ёшларда ватанпарварлик ва миллий ғурур ҳиссини кучайтириш глобаллашув асридаги муҳим вазифадир.

**Санжар БОБОЖОНОВ,**
**Маданият вазирлиги ташкилий-назорат ва таҳлил бошқармаси бошлиғи**

XALQARO HAMKORLIK

## БИР СТОЛ АТРОФИДА

**Ўзбекистон ёшлар иттифоқида Европа хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотининг мамлакатимиздаги лойиҳалари координатори Жон Макгрегор билан учрашув бўлиб ўтди. Мартабали меҳмонни Иттифоқ Марказий Кенгаши раиси ўринбосари Ўткир Шукуров қабул қилди.**




Р.НАЗАРМАТОВ

Икки ташкилот ўртасидаги ўзаро манфаатли ҳамкорлик истиқболларига бағишланган мулоқотда ёшлар ташкилоти қошидаги "Етакчи" ёшлар маркази раҳбарияти ва масъул ходимлари ҳам иштирок этди.

Ў.Шукуров Ёшлар иттифоқи саъй-ҳаракати асосида ўтган йили салкам 161 минг 700 та лойиҳа ва тадбир ташкил қилингани, уларга 23 миллиондан ортиқ йигит-қиз қамраб олинганини қайд этди. ЕХҲТ делегацияси вакилларига "Yoshlar — kelajagimiz" Давлат дастури доирасида амалга оширилган ишлар хусусида ҳам маълумот берилди.

Шу билан бирга, 2019 йилда "Етакчи" ёшлар маркази тенгдошларимизни волонтерлик фаолиятига кенг жалб қилиш ва шу орқали уларнинг ижтимоий фаоллигини оширишни мақсад қилгани айтиб ўтилди. Марказ директори Абдусаттор Бўстонов таъкидлаганидек, ушбу ташаббусни амалга оширишда Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотидек нуфузли халқаро тузилманинг тажрибаси асқатиши мумкин.

Ўз навбатида, жаноб Макгрегор ЕХҲТ Ёшлар иттифоқи билан икки томонлама муносабатларни давом эттиришга тайёр эканини маълум қилиб, Ўзбекистонда ёшлар учун яратилаётган кенг имкониятларни юқори баҳолади.

Музокаралар давомида терроризм ва экстремизм, гиёҳвандлик моддалари савдосига қарши курашиш, киберхавфсизлик каби йўналишларда қўшма лойиҳаларни ишлаб чиқиш юзасидан фикр алмашилди.

**Н.БАҲОДИРОВА**

BUGUNNING GAPI

## МАТБУОТГА МУНОСАБАТИМИЗ ШУМИ?!




Муаллиф олган сурат.

**Тонгни газета ўқиш билан эмас, миш-мишларга қулоқ тутиш билан бошлашга кўникиб қолганмиз.**

Шарқ бозорининг ажиб анъаналари бор-да. Мана масалан, "Кеп қолинг, об қолинг!"га ўхшаш барчага болаликдан ёд бўлиб кетган чақириқларни олайлик. Бу усул харидорлар эътиборини жалб қилиш ва маҳсулотни сотиб олишга ундаш мақсадида қўлланилганини биламиз, албатта.

Энди замон ўзгарди. Ҳозир мингта сўз ўрнини маркетологлар томонидан пухта ўйланган таъсирчан реклама эълонлари бемалол боса оляпти.

Пойтахтимиздаги марказий кўчалардан бири. Сиз суратда кўриб турган мана бу матбуот дўкони кўп йилдан буён мавжуд. У "Болалар дунёси" автобус бекатининг ёнида жойлашган. Аслини олганда, бу тўғри ҳам. Ахир, газета-журналлар одамлар гавжум жойда сотилиши керак-ку. Эҳ, сотилганда қани эди!!!

Таассуфки,

**БУГУН МАТБУОТИМИЗ ЧАЛАЖОН ҲОЛАТГА КЕЛИБ ҚОЛГАН. ШУНДАНМИ, МАТБУОТ ДЎКОНЛАРИНИНГ БОР-ЙЎҚЛИГИ, ОЧИҚ-ЁПИҚЛИГИ ДЕЯРЛИ ҲЕЧ КИМНИ ҚИЗИҚТИРМАЙ ҚЎЙДИ.**

Эшиги ҳафталаб қулф бўлса-да, пештахтасидаги ўнлаб газеталарнинг оҳори тўкилиб, қоғози сарғайиб, кераксиз буюмдек узукун осиғлиқ турса ҳам, биров қайрилиб қарамайди. Чунки биз тонгни газета ўқиш билан эмас, миш-мишларга қулоқ тутиш, қайси ижтимоий тармоқда қандай кулгили видео ёки сурат жойлаштирилди-ю, унга нечта "лайк" босилганини томоша қилишдан бошлашга кўникиб қолганмиз. Мамлакатимиз ва дунёда нималар бўлаётгани, жамиятдаги катта-кичик ўзгаришлар, асрий қадриятларимиз нега завол топаётгани билан эса, ишимиз йўқ!

Яқинда тажрибали немис журналисти билан суҳбатда бўлдим. У Германияда газеталар (аксарияти кунлик нашрлар) муштарийлар қўлига эрта тонгдан етказиб берилиши, борди-ю муддатидан кечикса, ўқувчисини йўқотиб қўйиши мумкинлиги ҳақида айтди. Сабаби кун давомида ҳамма ўз иши билан банд бўлиб, газета саҳифаларини варақлашга вақт ажратиши амримаҳол экан. Ҳарқалай, кун охирида исталган янгилик эскириб қолади.

**ПОЙТАХТИМИЗНИНГ ҚОҚ МАРКАЗИДА, МИНГ-МИНГЛАБ НИГОҲЛАР ЖАМ БЎЛАДИГАН ЖОЙДА ҲУВИЛЛАБ ЁТГАН МАТБУОТ ДЎКОНИ ОЛДИДАН МАНА НЕЧА КУНДИРКИ ЎТАМАН. ВА ҲАР САФАР ГЕРМАНИЯЛИК ҲАМКАСБИМНИНГ ГАПЛАРИ ҚУЛОҒИМ ОСТИДА ЖАРАНГЛАЙДИ.**

Қизиғи, абгор ҳолга келган ўша дўкон атрофида озиқ-овқат, кийим-кечак савдоси гуркирамоқда. Ресторан ва кафелар ҳам бисёр. Улар эрталабдан кечгача очиқ. Мижозларнинг қадами аримайди. Фақат газета-журнал сотиб олишга ҳеч кимнинг ҳуши йўқ. Бу аччиқ ҳақиқатни англаш, қабул қилиш газета чиқариш машаққатларини билган инсон сифатида шахсан мен учун жуда оғир.

Наҳотки, дунё журналистикаси тамал тошини қўйиб берган босма нашрларининг даври тугаб бораётган бўлса? Инсониятни ҳамиша ҳурлик, маънавий етуклик сари бошлаган, фикр юритиш, таҳлил қилиш, тафаккур этиш, хулоса чиқаришга ўргатган матбуотга муносабатимиз, эътибор ва эъзозимиз шуми?! Афсуски, ҳозирча бу саволлар очиқлигича қолмоқда...

**Наргиза УМАРОВА**

SPORT

## ҒОЛИБЛАР

### *халқаро турнирда иштирок этади*



Пойтахтимиздаги "Ice Avenue" муз саройида Ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши, Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ҳамкорлигида юртимизда илк марта конькида фигурали учиш бўйича "Тошкент конькилари" мусобақаси ўтказилди.

Мазкур чемпионат нафақат иштирокчилар, балки томошабинларда ҳам катта қизиқиш уйғотди. Унда саккиз ёш тоифасида 100 нафарга яқин ўғил-қиз уч йўналиш бўйича баҳс олиб борди.

Мусобақа якунида ғолиб ва совриндорлар аниқланиб, диплом ва эсдалик совғалар билан тақдирланди.

Турнирнинг мутлақ ғолиби деб топилган тўрт нафар иштирокчи Жанубий Сахалин шаҳрида ўтказиладиган "Осиё болалари" халқаро спорт ўйинларида қатнашиш йўлланмасини қўлга киритди.

**Ҳасан УСМОНОВ**



BIZNESGA QADAM

## 130 МИЛЛИОН СЎМ,

### *10 та иш ўрни*

Хоразмлик ёш тадбиркор Дилшодбек Нурметов касб-ҳунар коллежини битиргач, ўз тадбиркорлигини бошлашда кўмак сўраб, Ёшлар иттифоқининг Янгибозор туман кенгашига мурожаат қилди. Ўзбекистон ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш маркази Хоразм вилояти бўлими томонидан тенгдошимизнинг бизнес режаси ўрганилиб, зарур маслаҳат ва амалий кўмак берилди. У "Yoshlar — kelajagimiz" жамғармасидан 130 миллион сўм кредит олиб, "Dishko tekstil" масъулияти чекланган жамиятига асос солди. Айни пайтда ушбу корхонага қарашли тикувчилик цехида 10 нафар йигит-қиз доимий иш билан таъминланди.

Бундан ташқари, Дилшод туман Ёшлар марказида ташкил этилган



"Yoshlar tadbirkorlik klasteri"да тадбиркорликка қизиқувчи ўғил-қизларга соҳа сирларини ўргатмоқда.

**Сумбулой НУРМЕТОВА**

# ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАР ИТТИФОҚИ СТИПЕНДИЯСИНИНГ РЕСПУБЛИКА БОСҚИЧИ ҒОЛИБЛАРИ



**Ҳабибуллаева Дилфуза Қуўанышбай қизи**

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети 2-босқич талабаси



**Акбаров Абдулҳамид Акмал ўғли**

Андижон машинасозлик институти 3-босқич талабаси



**Раҳматиллаев Алишер Нусратиллаевич**

Бухоро муҳандислик-технология институти 3-босқич талабаси



**Пардабоев Фаррух Фарҳод ўғли**

Жиззах Давлат педагогика институти 2-босқич талабаси



**Ҳомидов Ҳумоюн Рамазон ўғли**

Қарши давлат университети 3-босқич талабаси



**Салимжонов Ҳазрат Акромжон ўғли**

Навоий давлат кончилик институти 2-босқич талабаси



**Эргашев Маъмуржон Мақсуд ўғли**

Наманган муҳандислик технология институти 3-босқич талабаси



**Саматова Нодира Темировна**

Самарқанд давлат чет тиллари институти 2-босқич талабаси



**Сирожиддинов Мақсудбек Ботиржон ўғли**

Гулистон давлат университети 2-босқич талабаси



**Тошбадалов Беҳруз Бўрон ўғли**

Термиз давлат университети 3-босқич талабаси



**Нарзуллаев Муслиҳиддин Шавкатович**

Тошкент давлат аграр университети 3-босқич талабаси



**Орифжонова Мухлиса Алишер қизи**

Фарғона давлат университети 3-босқич талабаси



**Аллаяров Сардор Фрунзеевич**

Урганч давлат университети 2-босқич талабаси



**Истамова Дилафрўз Ойбек қизи**

Тошкент давлат юридик университети 2-босқич талабаси

TARG'IBOT

## ФАРЗАНДИНГГА КИТОБ ЮТИБ ОЛ!

Сумбулой НУРМЕТОВА

**Урганчда ёшларнинг китобга бўлган қизиқишини кучайтиришда ота-оналарнинг ролини ошириш мақсадида “Фарзандингга китоб ютиб ол!” акцияси ўтказилди.**



Қизиғи, бу акция бозор ҳудудида ташкил этилди. Кимдир ҳар куни бозорда куни ўтиб, бирон марта ҳам китоб дўконига бормасдан яшаётганидан, бошқаси бир марталик тушлик пулига 2 та яхши китоб сотиб олиш мумкинлигини билмаганидан уялиб, китоб харид қилишга шошди.

100 нафардан ортиқ ота-оналар иштирок этган лойиҳа Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Урганч филиали қошидаги академик лицейининг Ёшлар иттифоқининг бошланғич ташкилоти етакчиси Ҳулкарой Ражапова ташаббуси билан ташкил этилди.

— Бундай тадбирлар маънавиятимизни бойитишга хизмат қилиш билан бирга, ёшларни кўпроқ китоб ўқишга ундайди, — дейди 63 ёшли Олтиной Раҳимова. — Акцияда қатнашиб, невараларим учун қизиқарли эртак китоблар ютиб олдим.

ESHITDINGIZMI?

## “ИШОНЧ ТЕЛЕФОНИ” ВА 46 ТА БИЗНЕС ЛОЙИҲА



Роҳатой ҚОДИРОВА

**Зомин туманида ёшлар муаммоларини ҳал қилишга кўмаклашиш мақсадида ҳокимнинг “Ишонч телефони” хизмати йўлга қўйилди. Ташаббус Ёшлар иттифоқининг маҳаллий кенгаши томонидан илгари сурилган. Бу ҳақда яқинда ташкил қилинган “Ҳоким ва ёшлар” учрашувида маълум қилинди.**

4-болалар мусиқа ва санъат мактабида бўлиб ўтган тадбирда 200 нафардан ортиқ йигит-қиз иштирок этиб, ўзларини қийнаётган муаммолар ҳақида сўзлади. Тадбиркорлик фаолияти учун бўш бино ёки ер участкаларини, кредит маблағларини, ижтимоий ёрдам пулини олиш, ишга жойлашиш билан боғлиқ саволларга туман ҳокими ўринбосари Турсунали Усмонқулов ҳамда Ёшлар иттифоқи вилоят кенгаши ходимлари атрофлича жавоб берди.

— Эндиликда ёшлар туну кун хизмат кўрсатадиган “Ишонч телефони” орқали ҳокимликка мурожаат қилиши мумкин, — дейди Иттифоқнинг Зомин тумани кенгаши раиси Бекзод Шукуров. — Бундай тизим биз учун ҳам ҳар жиҳатдан қулай. Чунки шу йўсинда тенгдошларимизнинг кайфияти, фикру муносабати, ўй-истакларини билиб, тезкор чора кўра оламиз.

Учрашув чоғида Ёшлар иттифоқи ҳузуридаги “Yoshlar — kelajagimiz” жамғармаси ҳисобидан тадбиркорлик билан шуғулланиш истагидаги зоминлик ёшларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш мақсадида жорий йилнинг ўзида 9 миллиард сўмдан ортиқ маблағ ажратилгани ҳақида ҳам ай-



тилди. Бу ўтган даврга қараганда икки баравар кўп. Натижада йил бошидан 46 та бизнес лойиҳа сараланиб, бўлғуси тадбиркорларга керакли кредит маблағларини ажратиш тадориги кўрилмоқда.

QAROR VA IJRO

## АЙТИЛДИ — БАЖАРИЛДИ!

Элдор НАВРЎЗОВ

**Ёшлар жиноятчилигига барҳам бериш мақсадида Жиззах вилоятида 800 га яқин “Фидокор ёшлар” гуруҳи тузилди. Ушбу ташаббусга Президентимизнинг 2018 йил 24 декабрдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори асос бўлди.**



Муаллиф олган сурат

Янги тузилма ҳудудларда тартиб-интизомни сақлашга масъул саналиб, айниқса, тунги вақтда кўнгилсиз ҳолатлар содир этилмаслиги учун жамоатчилик назоратини олиб боради. Ҳозирда “Фидокор ёшлар” 290 та маҳаллада фаолият кўрсатмоқда.

Гуруҳлар муддатли ҳарбий хизматни тамомлаб, миллий гвардия ёки ички ишлар идораларига ишга кириш истагида бўлган йигитлардан ташкил топган. Уларнинг фаолияти Ёшлар иттифоқининг вилоят кенгаши ҳамда ички ишлар бошқармаси томонидан мувофиқлаштириб борилади.

Шу кунгача гуруҳ аъзолари таълим муассасалари ҳамда кўнгилочар масканларда бир неча бор “Давомат” ва “Тунги рейдлар”ни ўтказишга улгурди. Шунингдек, аҳоли мунтазам равишда ҳуқуқий-тарғибот тадбирларига жалб қилинмоқда.

TASHABBUS

## АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ БЎЛАК

Раъно САИДОВА,
ЎзДЖТУ талабаси

**Ёшлар иттифоқининг Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университетидаги бошланғич ташкилоти ташаббуси билан “Журналист ва ёшлар” учрашуви ташкил этилди.**

Журналистикага қизиқувчи ёшларни аниқлаш, уларга амалий ва назарий кўмак бериш, соҳага оид билимларини янада мустаҳкамлашга қаратилган тадбирда истеъдодли талаба-ёшлар, таниқли журналистлар иштирок этди.

Учрашувда юртимизда фаолият юритаётган оммавий ахборот воситаларининг бугунги ҳолати, муаммо ва камчиликлари хусусида сўз юритилди.

Таъкидланганидек, ҳар бир соҳани пухта эгаллашда амалиётнинг ўрни беқиёс. Бугунги глобаллашув, тезкор ахборот замонида журналистдан ишчанлик, аниқлик, холислик талаб қилинади. Бунинг учун эса, ёшларга устоз журналистларнинг тажриба ва маҳорати кўмак бериши тайин.

Икки авлод учрашувида моҳир журналистлар иштирокчиларга мақола ёзиш, мавзуни ёритиш борасида керакли тавсия ва маслаҳатларни берди.

— Бугунги маҳорат дарсида кўпгина фойдали маълумотларга эга бўлдик, — дейди таржимонлик назарияси ва амалиёти факультети талабаси Диёр Равшанов. — Бу эса, келгусида соҳани мукаммал эгаллашимиз учун пойдевор вазифасини ўтайди. Шундай тадбирлар тез-тез бўлишига умид қиламан.

Самимий руҳда кечган учрашувда талабалар ўзини қизиқтирган саволларга мутахассислардан жавоб олди.




# ДИНИЙ БАРҚАРОРЛИК ВА ТИНЧЛИК КАФОЛАТИ

**Шухрат ЁВҚОЧЕВ,**
**Ўзбекистон халқаро ислом академияси ректори, сиёсий фанлар доктори, профессор**

**2018 йил 11 декабрь куни АҚШ Давлат котиби Майкл Помпео Ўзбекистонни “алоҳида хавотирга сабаб бўлувчи мамлакатлар рўйхати”дан чиқариш тўғрисида қарор қабул қилгани Ўзбекистонда сўнгги вақтларда юз бераётган ижобий ўзгаришлар жаҳон ҳамжамияти томонидан эътироф этила бошлаганини англатади.**
**Ўзбекистоннинг диний эркинлик соҳасида амалга оширган ишлари илк бор диний эркинликни ривожлантириш бўйича вазирликлар конференциясида АҚШ Давлат департаменти томонидан таъкидланиб, ижобий баҳоланди.**
**Ўтган йилнинг 12 декабрь куни БМТ Бош Ассамблеясининг ялпи сессиясида Ўзбекистон томонидан таклиф этилган “Маърифат ва диний бағрикенглик” деб номланган махсус резолюция қабул қилинди.**

Аксарият экспертлар томонидан башарият ҳаётида муҳим роль ўйнаши айтилаётган мазкур тарихий ҳужжат ҳақида илк бор Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрда БМТнинг 72-сессиясида сўз юритган эди.

Моҳияти барчанинг таълим олиш ҳуқуқини таъминлаш, саводсизлик ва жаҳолатга барҳам бериш, барча жамиятларда бағрикенглик ва ўзаро ҳурматни қарор топтириш, диний эркинликни таъминлаш, эътиқод қилувчиларнинг ҳуқуқини ҳимоя қилиш, уларнинг камситилишига йўл қўймасликдан иборат бўлган Махсус резолюцияда кўзда тутилган ишлар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелда эълон қилинган “Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонида ўз ифодасини топиб, мамлакатимизда йил давомида бирин-кетин содир бўлган муҳим ҳодисалар ривожини бошлаб берди.

Фармон ижроси юзасидан дастлабки амалга оширилган ишлардан бири Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Дин ишлари бўйича қўмитада диний-ижтимоий жараёнларни ўрганиш юзасидан ахборот-таҳлил марказининг ташкил этилиши бўлди.

Масаланинг моҳиятига эътибор берсак, бундай марказлар жамиятда кечаётган диний-ижтимоий жараёнларни чуқур ўрганиш, турли оммавий ахборот воситалари томонидан тарқатилаётган маълумотларни таҳлил қилиш, диний-ижтимоий муҳитнинг барқарорлигига салбий таъсир кўрсатувчи омилларни ўз вақтида аниқлаш ва олдини олиш борасида муҳим роль ўйнашини англаб етамиз.

Давлатларни мавҳ этишнинг асримизда кенг қўлланилаётган усули, шубҳасиз, мафкуравий таъсирдир. Башарият бу ҳолнинг диний, дунёвий ва яна бошқа кўринишларда намоён бўлаётганига бевосита гувоҳ бўлмоқда. Таъбир жоиз бўлса, айтиш мумкинки, айни пайтда, миллатлар ва халқлар хавфсизлигига қурол кўтарган аскар эмас, ораста кийинган, сўзлари кишини маҳлиё этувчи, саводхон, кишилар билан гўёки хушмуомала, бироқ шу халқ, шу миллат вакили бўла туриб, нохолис кучларнинг “қўғирчоғи”га айланган манқуртлар кўпроқ хавф солмоқда.

Гоҳида мазмун-моҳияти силлиқ, бир қарашда халқимизнинг диний анъаналари ва қадриятларига зиён келтирмайдигандай туюлувчи ҳаракатлар, оқимлар, адабиётлар, видеофильмлар, аудио дискларда ёзилган материаллар, газета-журналларда эълон қилинаётган мақолалар вақт ўтиши билан мутлақо тескари акс-садо бериши мумкинлигини диний-маърифий соҳада хизмат қилиб келаётган устозлар, юртимиз ва минтақада таниқли бўлган эксперт-олимлар яхши билади.

Шу маънода, оддий мақоладан тортиб, диний мазмундаги публицистик тўпламлар, аудиомаърузалар, илмий, илмий-оммабоп асарлар, фильмлар ва бошқа тарғибот маҳсулотларини ўрганиш, уларнинг мазмун-моҳияти ва туб маъносини англаш, фойдаланиш учун зарурий тавсиялар ҳамда фойдали қўлланмалар билан таъминлаш бугунги куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Марказда фақат ислом дини бўйича эмас, балки жаҳонда кенг тарқалган, Ўзбекистон Республикасида расман рўйхатдан ўтиб, фаолият юритаётган бошқа динлар бўйича ҳам экспертлар мавжуд.

Жаҳондаги глобаллашув ва интеграция жараёнидан устамонлик билан фойдаланаётган экстремистик ва фундаменталистик ҳаракатлар қаршисида ожиз қолмаслик учун диний ва дунёвий илмларни пухта эгаллаган, ахборот технологияларидан профессионал даражада фойдаланувчи, диний ва фалсафий таълимотлар назариясини чуқур ўрганган кадрлар эндиликда ҳар қачонгидан ҳам муҳимроқдир. Негаки, биргина ислом динида бир қанча мазҳабларнинг мавжудлиги ва уларнинг ўзаро фарқланиши диний соҳанинг нечоғлик мураккаблигини кўрсатади.

Инсонларга Қуръон ва суннатдан гапириш шахсдан Қуръони карим, тафсир, ислом тарихи, ақида, тасаввуф, ислом шариати, фиқҳ ва унинг таркибига кирувчи фатво, ижмо, қиёс ва бошқа илмлардан пухта хабардорликни талаб этади.

Ҳадисларни нотўғри талқин қилиш, ҳадисларнинг қандай сабаб ва шароитдан келиб чиқиб айтилганини билмаслик, гоҳида ҳадисларни Қуръон оятларидан устун қўйиш, макон ва замон талабига кўра айтилган ҳадисларни барча жойда бирдек амал қилади, деб ҳисоблаб, фатво ўрнида кўриш одамлар орасида тушунмовчиликлар ва зиддиятлар келиб чиқишига сабаб бўлади.

Шу боис, фармонда “Қуръони карим ва ҳадисларнинг асл моҳиятини, ҳадис илмининг илмий-назарий асосларини чуқур ўрганган, ҳадис илми ривожига беқиёс ҳисса қўшган улуғ ватандошларимизнинг улкан илмий меросини пухта ўзлаштирган, ҳадисшунослик соҳасида илмий изланишлар олиб бориш кўникмасига эга мутахассисларни тайёрлаш ҳамда ҳадислардаги умуминсоний эзгу ғояларни халқимиз, айниқса, ёш авлодга етказиш” асосий вазифаси бўлган Ҳадис илми мактабининг ташкил этилиши кўзда тутилган эди.

Айни пайтда, белгиланган миқдорда талабаларни қабул қилиб, ўз фаолиятини бошлаган Ҳадис илми мактаби диний маърифат, ватан ва халқ манфаати ҳамда диний барқарорлик йўлида қўйилган катта қадам бўлди. Қолаверса, ислом оламидаги олти буюк муҳаддисдан тўрттаси Имом ал-Бухорий, Имом ад-Доримий, Имом ат-Термизий ва бу зотларга устозлик қилган, кўҳна Кешда туғилиб, камолга етган Абд ибн Ҳумайд ал-Кашшийдек улуғ муҳаддисларни инсониятга туҳфа этган, “Бухорийлар”, “Самарқандийлар”, “Фарғонийлар”, “Марғилонийлар”, “Насафийлар” ва “Кешийлар” ватани деб шарафланган Ўзбекистон ва бу замин олимларининг четда туриши кечирилмас ҳол бўлар эди. Шу маънода, ушбу мактаб юртдошларимизга муборак бўлсин!

Жамият тараққиётида фуқароларнинг ижтимоий ҳимоясини таъминлашга бўлган эътибор муҳим роль ўйнаши, шубҳасиз. Агар бирор-бир соҳа вакили ўз ишидан, унга тўланаётган ҳақдан, берилаётган имтиёзлардан қониқмаслик ҳиссини туя бошласа, ўз ижтимоий ҳимояси кафолатига шубҳа билан қараса, унда тушкунлик кайфиятининг пайдо бўлиши муқаррар. Энг ёмони, бу ҳолнинг маълум бир шахсда эмас, бутун бошли соҳада кузатилганидир.

**ТАН ОЛИШ КЕРАК, ҲОЗИРГА ҚАДАР ДИНИЙ СОХА ХОДИМЛАРИ, МАСЖИД ИМОМЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НОИБЛАРИГА ОЙЛИК МАОШ ТАЙИНЛАШ, МОДДИЙ ВА ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ, ЗАРУРАТГА КЎРА УЙ-ЖОЙ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ, УЛАРНИ ЭЛ-ЮРТ НАЗДИДА ЮҚОРИ ЭЪТИБОРГА ЭГА БЎЛГАН МУКОФОТЛАР БИЛАН ТАҚДИРЛАШ, АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ ҚАТЛАМЛАРИ, ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ШАХСЛАРНИ МОДДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ЖИҲАТДАН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ИШЛАРИ ТИЗИМЛИ ТАШКИЛ ЭТИЛМАГАН ЭДИ.**

Фармон асосида Ўзбекистон мусулмонлари идораси ҳузурида “Вақф” хайрия жамоат фондининг ташкил этилиши ва фонд маблағлари ҳисобидан диний таълим муассасалари, илмий-тадқиқот марказлари фаолиятини молиялаштириш, уларнинг профессор-ўқитувчилари, тадқиқотчилари, мутахассислар ва ўқувчи-талабаларини, масжидлар ва зиёратгоҳлар ходимларини, хусусан, имом-хатиблар, имом ноиблари, мутаваллилар, муаззинларни моддий ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш, ойлик иш ҳақи тўлаш, кўп йиллар давомида намунали фаолият юритаётган, уй-жойга муҳтож имом-хатибларга уй-жой бериш борасидаги чора-тадбирлар ўзининг ижобий самарасини бериши аниқ.

Айни вақтда, “Вақф” хайрия жамоат фонди томонидан фуқароларнинг диний, маънавий ва интеллектуал салоҳиятини оширишга қаратилган ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, миллий ва диний қадриятларимизни асраб-авайлаш, масжидлар ва диний таълим муассасаларининг биноларини қуриш, таъмирлаш, реконструкция қилиш, моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, тарихий-меъморий аҳамиятга эга зиёратгоҳларни ободонлаштириш, ислом илм-фани ва маданияти ривожига улкан ҳисса қўшган буюк аждодларимиз, замонамизнинг етук олим ва уламолари қаламига мансуб диний-маърифий асарларни чоп этиш, юртимиздаги муқаддас қадамжоларга хорижий фуқаролар зиёратларини уюштириш йўлида муайян ишлар амалга ошира бошланди.

**ҲОЗИРГА ҚАДАР, “ВАҚФ” ХАЙРИЯ ЖАМОАТ ФОНДИ ТОМОНИДАН ПОЙТАХТИМИЗДАГИ “ШАЙХ ЗАЙНИДДИН”, ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДАГИ “МАРКАЗИЙ” ВА САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДАГИ “ХОЖА ИСҲОҚ ВАЛИЙ” ЖОМЕ МАСЖИДЛАРИДА ИЛК МАРОТАБА СУРДО ТАРЖИМА БИЛАН ДИНИЙ МАЪРУЗА ҚИЛИШ ИШЛАРИ ИННОВАЦИОН ТАРЗДА ЙЎЛГА ҚЎЙИЛГАНИ, НАФАҚАТ МУСТАҚИЛ ДАВЛАТЛАР ҲАМДЎСТЛИГИ МАМЛАКАТЛАРИ ДОИРАСИДА, БАЛКИ БУТУН МУСУЛМОН ОЛАМИДА ҲАМ ЎЗИГА ХОС ЯНГИЛИК БЎЛДИ.**

Айниқса, Президентимизнинг 2017 йил 1 декабрдаги “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони асосида Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан эшитиш, сўзлаш ва кўриш қобилиятида нуқсони бўлган фуқаролар билан “Сиз бизга кераксиз!” шиори остида ўтказилаётган маърифий тадбирларнинг ҳар бир ҳудудни қамраб олаётгани қувончли ҳолдир.

Эзгу ишлардан яна бири Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Тошкент ислом университети ва Ўзбекистон ислом академияси негизида Ўзбекистон халқаро ислом академиясининг ташкил этилганидир.

Диний соҳада чуқур тадқиқотлар олиб борувчи илмий ва илмий-педагог кадрларни тайёрлаш, республикадаги барча ислом таълим муассасалари фаолиятини ўқув-меъёрий ва ўқув-услубий жиҳатдан мувофиқлаштириш, замонавий ахборот-коммуникация технологияларини диний таълим жараёнида кенг жорий этиш, илмий тадқиқотлар натижалари бўйича илмий-оммабоп адабиётларни тайёрлаш, ислом оламида юзага келадиган долзарб масалалар, замонавий сиёсий жараёнларга оид илмий-амалий анжуманлар ўтказиш, хорижий олий диний таълим муассасалари ҳамда бошқа ташкилотлар билан яқиндан ҳамкорлик қилиш Академиянинг асосий вазифалари сирасига киради.

Айни пайтда, “Исломшунослик”, “Мумтоз Шарқ филологияси” ҳамда “Ислом иқтисодиёти ва халқаро муносабатлар” факультетлари таркибида ўн иккита кафедра фаолият олиб боряпти.

Исломшунослик, қуръоншунослик ва ҳадисшунослик, ақида ва тасаввуф, ислом ҳуқуқи, ислом тарихи ва манбашунослиги, филология ва тилларни ўқитиш, мумтоз шарқ адабиёти, диншунослик, халқаро муносабатлар, иқтисодиёт, ислом иқтисодиёти ва молияси, филология ва тилларни ўқитиш (араб тили), психология (дин социопсихологияси), тарих (ислом цивилизацияси), зиёрат туризмини ташкил этиш ва бошқариш, исломда банк иши мутахассисликлари бўйича минг нафардан ортиқ маҳаллий ва хорижий талаба сабоқ олмоқда.

Қўлёзма ва тошбосма китоблардан иборат фондимиз аҳоли қўлида сақланаётган қадимий китобларни сотиб олиш эвазига бойитиб борилади. Бўлимда 500 га яқин қўлёзма, 1 минг 500 га яқин тошбосма, 10 мингдан ортиқ замонавий нашрлар мавжуд. 2004 йили моҳирх Ҳабибулло Солиҳ томонидан кўчирилган Усмон мусҳафининг нусхаси, улуғ аждодимиз Бурҳониддин Марғинонийнинг “Ҳидоя” асарининг асл нусхаси ҳам шу бўлимда сақланмоқда.

Ўзбекистон халқаро ислом академиясининг Халқаро алоқалар бўлими ҳозирга қадар Мисрнинг Ал-Азҳар, Туркиянинг Ибн Халдун, Займ, Салжук, Кастамону, Қозоғистоннинг “Нур-Муборак”, Индонезиянинг Жакарта Саҳид ва Султон Шариф Қосим, Риау давлат ислом университетлари, Буюк Британиянинг Кэмбриж ҳамда Марказий Осиё форуми билан ўзаро англашув меморандумларини имзолади.

Айниқса, Ўзбекистон халқаро ислом академиясига Миср Бош имоми Шайх Аҳмад Муҳаммад ат-Тоййиб бошчилигидаги ал-Азҳар мажмуаси вакилларидан иборат нуфузли делегация ташрифи фақатгина академия ҳаётида эмас, балки мамлакатимиздаги бошқа кўплаб таълим муассасалари ҳаётида ҳам ёрқин воқеалардан бўлди.

Бу ташриф натижасига кўра, нафақат шариат, балки бошқа ижтимоий масалалар бўйича қарашлари ҳам катта аҳамиятга эга бўлган, халқаро ҳамжамият томонидан хотин-қизлар ҳуқуқининг фаол ҳимоячиларидан бири сифатида тан олинган, фалсафа ва ислом ҳуқуқи бўйича кўплаб илмий ишлар ва таржималар муаллифи, Миср Бош имоми — Шайх Аҳмад Муҳаммад ат-Тоййиб Ўзбекистон халқаро ислом академиясининг фахрий профессорлари сафидан жой олди.

**ҲАДИСЛАРНИ НОТЎҒРИ ТАЛҚИН ҚИЛИШ, ҲАДИСЛАРНИНГ ҚАНДАЙ САБАБ ВА ШАРОИТДАН КЕЛИБ ЧИҚИБ АЙТИЛГАНИНИ БИЛМАСЛИК, ГОҲИДА ҲАДИСЛАРНИ ҚУРЪОН ОЯТЛАРИДАН УСТУН ҚЎЙИШ, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛАБИГА КЎРА АЙТИЛГАН ҲАДИСЛАРНИ БАРЧА ЖОЙДА БИРДЕК АМАЛ ҚИЛАДИ, ДЕБ ҲИСОБЛАБ, ФАТВО ЎРНИДА КЎРИШ ОДАМЛАР ОРАСИДА ТУШУНМОВЧИЛИКЛАР ВА ЗИДДИЯТЛАР КЕЛИБ ЧИҚИШИГА САБАБ БЎЛАДИ.**

Ўзбекистон ва Миср алоқаларини янада мустаҳкамлаш, икки халқни дўстона ришталар билан янада яқинлаштириш мақсадида Ўзбекистон халқаро ислом академияси ва ал-Азҳар университети ўртасида ҳамкорлик ва ҳамфикрликни ўзида мужассам этган Англашув Меморандуми имзоланди.

Ўзбек уламолари ва шарқшуносларининг жаҳон олимлари орасида ўз ўрни борлиги, шубҳасиз, албатта. Шу боис халқаро миқёсда ўтаётган анжуманларда Ўзбекистон вакилларининг иштироки одатий ҳолга айланган.

Ўзбекистон халқаро ислом академияси вакиллари бугунги кунгача



“Замонавий дунёвий давлатда ислом” номли II Халқаро илмий-маънавий анжуманда (Бишкек шаҳри), “XXI аср таҳдидлари ва ислом маърифати ғоялари” номли халқаро анжуманда (Туркия), ИРСИКА халқаро ташкилотида, Қозоғистон, Россия, Малайзия ва бошқа мамлакатларда ўтказилган илмий анжуманларда иштирок этди.

Академиянинг “Исломшунослик” факультети таркибидаги “Диншунослик ва жаҳон динларини қиёсий ўрганиш ЮНЕСКО” кафедраси дунё бўйлаб турли таълим даргоҳлари таркибида ташкил этилган 678 та ЮНЕСКО кафедраларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон халқаро ислом академиясининг “Исломшунослик” факультети таркибида бўлган “Ислом цивилизациясини ўрганиш ISESCO” кафедраси эса, 2016 йил октябрда Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган “Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл” номли 43-сессиясида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ислом академиясида Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича ислом ташкилоти — ISESCOнинг Махсус кафедрасини ташкил этиш борасидаги таклифига асосан иш бошлаган.

“Зиё” медиа-маркази томонидан марказий телеканаллар орқали эфирга узатилувчи “Имом Бухорий сабоқлари” ва “Ҳидоят сари” кўрсатувлари ўзининг кўп сонли мухлисларига эгалигини алоҳида таъкидлаш лозим.

Халқимизнинг исломий йўналишдаги илмий-оммабоп матерalларга бўлган талабига кўра ташкил этилган “Ислом тафаккури” журнали янги нашр бўлиб, унда “Қуръоншунослик”, “Луғатшунослик”, “Мумтоз филология”, “Фиқҳ илми”, “Ҳадисшунослик” каби турли рукнлар остида профессор-ўқитувчилар, тадқиқотчилар, мутахассисларнинг илмий, илмий-оммабоп мақолалари, тадқиқотлар натижалари, қизиқарли маълумотлар ва ахборотлар бериб борилади.

Узлуксиз таълим тизимини қамраб олиш таълим даргоҳининг энг катта вазифаларидан бири. Академия таркибидаги “Зиё-зукко” умумтаълим ўрта мактабида 295 нафар ўқувчи ўзбек ва рус тилларида таълим олади. Бу масканда ўқувчилар инглиз ва рус тилларини 1-синфдан, араб тилини 2-синфдан ўрганади.

Бундан ташқари, Ўзбекистон халқаро ислом академияси таркибида 40 нафар малакали ўқитувчи-педагог хизмат қилаётган академик лицейда 609 нафар ўқувчи хорижий филология (араб ва инглиз тили), аниқ фанлар (иқтисод ва техника) ва ижтимоий-гуманитар фанлар йўналишида таълим олмоқда.

Яъни, Ўзбекистон халқаро ислом академияси томонидан мактабгача таълимдан ташқари умумтаълим, ўрта-махсус таълим, бакалавриат, магистратура ва докторантура босқичлари қамраб олинган.

Таълим соҳасида самарадорликни ошириш, ўқитувчи-педагогларнинг билими, малакаси ва тажрибасини бойитиш орқали таълим сифатини юксалтириш Малака ошириш марказлари ниҳоятда муҳим. Самарқанд ва Тошкент шаҳрида ўз фаолиятини бошлаган Малака ошириш марказларимиз диний соҳа вакиллари жумладан, имом хатиблар, имом ноиблари ҳамда ўрта, тўлиқсиз олий ва олий диний таълим берувчи таълим муассасаларининг педагог кадрлари малакасини ошириш, уларни замонавий билим ва кўникмалар билан қуроллантириш имконини беряпти.

Бугун диний соҳа вакили деганда фақатгина ибодат маросимларини ўтказувчи, дунёқараши тор кишиларни тушуниш нотўғри.

Биз “Тасаввуф намояндалари”, “Марказий осиёлик мутакаллим олимларнинг илмий мероси” мультимедияли интерактив қўлланмаларини, “Ўзбекистон – буюк алломалар юрти” виртуал дастурини, “Ҳадис илми мактаби”, “Халқаро ва минтақавий ислом ташкилотлари” каби дастурий маҳсулотларни иқтидорли талабалар кўмагида яратдик.

Интернет фойдаланувчиларига мўлжалланган “Абу Мансур ал-Мотуридий илмий мероси ва “Мотрудия” таълимоти”, “Тошкент шаҳри масжидлари дислокацияси. Online харитаси ва 3D моделлар”, “Зиёрат туризми” бўйича ўзбек, рус ва инглиз тилларида батафсил маълумот берувчи, зиёратгоҳларнинг онлайн харитаси бўлган геолакацион тизим, “Ўзбекистонда ислом цивилизацияси”, деб номланган автоматлаштирилган ахборот дастури ва “Ўрта Осиё олимлари қомуси”каби иловалар яратилди.

Диний-маърифий соҳада амалга оширилган ишларни сарҳисоб қилар эканмиз, бу эзгу ишлар Президентимизнинг 2018 йил 16 апрелда қабул қилинган “Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги тарихий фармони ижросига қаратилганини кўриш мумкин. Буларнинг бари Ислом оламида буюк мутафаккирлари билан танилган Ўзбекистоннинг бугунги ёшлари ўз аждодларига муносиб бўлиб, башарият олдида диний барқарорлик ва тинчлик кафолати сифатида ўзини намоён қилиши учун бошланган кенг кўламли ишларнинг дебочасидир.

MUALLIFGA MAKTUB

# TOVUSHSIZ TASALLI

Sherbek BOBOQULOV

**Sinfdosh oshnamnikiga borib, dilini og'ritib qaytdim. Bahs bahona shaxsiy fikrdan shaxsiyatga o'tib ketayozibmiz. O'n kuncha "ichimni it tirnadi". Bekor qildim! O'n birinchi kun, tushga yaqin o'zi keldi uyimga. Ko'rpacha emas, ko'ngilni to'shab, peshvoz chiqdim. Dasturxon yozildi. Yonboshlab gurungdan oldik. Bir mahal oshnam turib, o'tirdi:**



— Yozganlaringni topib o'qidim internetdan. Ha-ammasini. Kecha oqshom boshlovdim, uyqum kelib qoldi, bugun tongda tugatdim.

— Aha?

— Aytuvraymi?

— Aytuvur...

— Agar sen yozganingni bilmaganimda, birontasiniyam o'qimasdim oxirigacha! Juda tushkun — bir. Ko'-o'p so'zlarini tushunmadim — ikki. Ataylab cho'zib yozgandaysan — uch...

Qisqasi, to'qson foizi unga yoqmadi. Yoqqan o'n foizi ham, nimasi, sarlavhalari, topgan bir-ikkita iboralari. Shu.

— Endi-i, oshna, xalq uchun yozayotgan bo'lsang, xalq tushunadigan qilib yoz-da...

Oshnam gapirarkan, ikki so'z o'mganimda o'rmalardi: qilma — topasan! Qilma...

***

Assalomu alaykum, Nazar aka. Ijod horitib qo'ymadimi? Bekorchi bir kitobxo'rman. "Mendan "Men" gacha" kitobingizning birinchi qismini tugatdim yaqinda. Uch qismga bo'libsiz kitobni: "Men"ni izlab", "Men" bilan yuzma-yuz", "Men"ga chizgilar".

Birinchi qismida o'zimni izladim, Sizga qo'shilib. Topgandek ham bo'ldim. Masalan, itfe'l avtobus haydovchisidan ranjib, keyingi bekatda tushib qolgan qariya bilan tushib qoldim avtobusdan; minbarga chiqvolib, kompyuterni yaxshi bilmaydiganlarni yoppasiga "madaniyatsiz" atayotgan "madaniyatli"ning gaplaridan ensam qotib, zalni tark etdim; Sizif bilan yelkama-yelka xarsang dumalatdim...

Peshanam tirishgan joylari ham bo'ldi, lekin. Xususan, bugungi adabiy turg'unligimizga sabab, deb sho'ro davrini ham aytasiz. Qisman haqdirsiz. Bir gap-da, xonasi kelganda, hamma narsani sho'roga ag'daraverish... yetar-ey endi?! Kommunizm yerparchin tushganigayam o'ttiz yil bo'ldi. Ammo ba'zi "ziyoli"larimiz hanuz o'lik itni tepkilashdan charchamayotgandek. O'tgan o'tdi, bugunni ko'rib, ertani o'ylaylik, vassalom.

Yana bir gap. Ommaviy madaniyat, mafkuraviy xurujlar, terminatorlar va ularga ko'r-ko'rona ergashayotgan yoshlar haqida yonig'ib yozibsiz. O'zgani qo'yib, o'zimdan gapirsam. Hali-hamon rep, rok, pop musiqalarini eshitaman, qo'shiqlarini yodlab, aytib yuraman. Solih Qahhor, Nuriddin Ismoilov, Habib Temirov, Azamat Qorjovovning yozganlarini, jumladan, Siz bir necha bor istehzo ila keltirganingiz "Daydi qizning daftari"ni ham, ikkala jildini-da to'liq o'qiganman. Nimalardir olganimni, uqqanimniyam e'tiroflayman kerak bo'lsa. Biroq bu bilan o'zimni daydib, yo aynib ketdim, deyolmayman.

Menimcha, odamda shunday davr bo'ladi o'zi: ko'ngli bestfeller asarlar-u "bitts-bitts" musiqalarni tusab qoladi. Inson ichining rassomi — Dostoyevskiy qaysidir asarida ("Telba"sida, adashmasam) aytganidek, ba'zan umuman yoqtirmagan qo'shig'ingni xirgoyi qilib qolasan, deb. Yanayam bilmadim. Psixologiyani, psixoanalitikani menga o'xshaganlarga dars berar darajada bilishingizga shubham yo'q. Shunchaki, yoshlarga yoppa ayblov yoki hafsalasizlik ko'zi bilan emas, Qahhorona, Asqad Muxtorona, Ibrohim G'afurovona umid, ishonch nigohi bilan qarash yaxshiroqmasmikan, deyman-da.

Ikkinchi qismida Siz bilan gazetchi muxbirlar-u yozuvchi shoirlar qurgan suhbatlardan keltiribsiz. O'n bitta suhbat-intervyudan uchtasini o'qish kifoya. Qolganlarida... o'sha savollar-u o'sha javoblar qayta-qayta aylanaveradi: "Modernga munosabatingiz?", "Miflar xususida fikringiz?", "Kitobni qanday o'qiysiz?"...

Boz ustiga bir narsaga hayronman. Sizla suhbatlashganlarning aksari "Yalpiz hidi"dan boshqa kitobingizni o'qimaganga o'xshaydi. Undan keyingi yozib, e'lon qilganlaringizni o'qishganda, uslub, an'ana, g'arb-u sharq to'g'risida bu qadar chaynalishmagan bo'lardi. Va Siz ham: muhimi — iste'dod, qanday uslubda yozib-chizish ema-as, deyaverib sillangiz qurimasdi.

Oxirgi qismini yayrab o'qidim, ammo. Chindan 30 ta yozuvchi — shoir — faylasuf hayoti-yu xarakterini tasvirlash orqali INSON siyratiga chizgilar tortibsiz, asli. Bu chizgilarda teran ruhiyat va yuksak aqlning borki manzaralari ko'zga tashlanadi. Ulardagi adabiyot otlig' olamning jilvalaridan ko'zim qamashdi: Attorning fusunkor "do'kon"i-yu, Borxesning quroq to'qimalari bir yon, Sartrning sarkashligi-yu Kortafarning "o'yin"lari bir yon, Markesning ertaklari-yu Akutagavaning tirik klassikligi...

Angladimki, muhimi, qanday usul va an'anada yozish emas, qanchalik yoza olishda, kayfiyatingni izhor qilib, kechishda. Kitobning so'nggi betini yoparkanman, ich-ichimga tasalli inganini tuydim. Tovushsiz tasalli bergandek bo'ldi kimdir.

***

...Oshnam aytarini aytib tugatdi. Oniy sukutdan so'ng tilga kirdim:

— Avvalo o'zingdan ortib, sahar mardonda shu aji-bujilarimni o'qibsan, rahmat, oshnam. Men, masalan, barvaqt uyg'onib kimyo kitobini o'qimayapman-ku (oshnam kimyodan dars beradi). Keyin... o'sha yozganlarimning senga 90 foizi yoqmagan bo'lsa, o'zimga barchasi yoqmay qolgan hozir. Ular men uchun — g'ijimlab otilgan qog'oz, bosib o'tilgan pillapoya. Haligacha tayin bir yozish uslubimni topmadim. Izlayapman. Sen bilgan "men"dan qutulganimga ancha bo'ldi...

Oshnam fotihaga qo'l ochdi.




FOTOLAVHA




Bahromjon TURDALIYEV

O'QING, BU QIZIQ!

**Yaqinda e'lon qilingan tadqiqot xulosalariga ko'ra, filmdagi ta'sirchan lavhalarni tomosha qilayotganda beixtiyor ko'zi namlangan inson, hatto erkaklar, aslida kuchli shaxs sanaladi. Qolaversa, bunday odamlar odatda olijanob, hojatbaror, boshqalarni tez tushunadigan va g'oyat kirishimli ekanini olimlar isbotlagan.**



HIKMAT

**Aql kishiga faqat o'zining noma'qul yashayotganini bilish uchungina emas, balki oqilona yashash uchun ham beriladi.**

Vissarion BELINSKIY

E'LON

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR AGENTLIGI BILAN HAMKORLIKDA ELEKTRON VA BOSMA O'QUV MATERIALLARI UCHUN ENG YAXSHI BOLALAR PERSONAJINI YARATISH BO'YICHA TANLOV E'LON QILADI**

Tanlovga arizalar joriy yilning 15-fevraligacha qabul qilinadi. Tanlov ishtirokchisi (yoki ishtirokchilar jamoasi) o'zbek xalqi madaniyati, an'analari va o'ziga xosligini ramziy ifoda etuvchi personaj yoki obrazlar guruhi (odamlar, hayvonlar, to'qima qahramonlar, jonsiz predmetlar)ni yaratishi lozim. Ijodiy ishlar cheklanmagan miqdorda qabul qilinadi hamda bolalar adabiyoti yoki Maktabgacha ta'lim vazirligining multimedia mahsulotlarini tayyorlashda qo'llaniladi.

Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi.

**Birinchi bosqich** (15-20-fevral)da www.tanlov.mdo.uz saytida ovoz berish yo'li bilan 10 ta eng yaxshi ijodiy ish tanlab olinadi. Ovozlar sonini sun'iy ravishda ko'paytirishga intilgan ishtirokchilar tanlovdan chetlashtiriladi. Tashkilotchilar kuchli o'nlikka kira olmagan beshtagacha ijodiy ishni finalga o'tkazish huquqiga ega.

**Ikkinchi bosqichda** komissiya ochiq muhokama qilish yo'li bilan uchta eng yaxshi ishni tanlab oladi.

Tanlovning g'olib va sovrindorlari diplom, qimmatbaho sovg'alar, shuningdek, quyidagi miqdordagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi:

**1-o'rin — 10 million so'm**
**2-o'rin — 6 million so'm**
**3-o'rin — 4 million so'm**

**Ijodiy ishlarni akarimov@mdo.uz elektron pochta manziliga jo'natish mumkin. Qabul qilingan ishlar bir ish kuni mobaynida saytga joylashtiriladi.**

**Ma'lumot uchun telefonlar: +99894 933-33-32, +99871 255-34-49.**

*(Tanlovda qatnashishdan avval tanlov ofertasi bilan tanishib chiqing).*

## "SHE'RIYAT MULKINING SULTONI" BOSHQOTIRMASI




**1.** A.Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" dostoniga kiruvchi she'r turi. **2.** Shoir hayoti va faoliyatida muhim o'rin egallagan shaharlardan biri. **3.** Ikki tog' oralig'idagi yo'l. **4.** Navoiy asarlari qahramonlariga mohirlik bilan surat chizgan musavvir. **5.** Shoir yerdan olinadigan daromadning xarajatlarga yetarli qismini qoldirib, xalq uchun sarf etganini ta'kidlagan asari. **6.** Navoiy teatrida 1939-yilda qo'yilgan birinchi o'zbek operasi – "Bo'ron"ga libretto yozgan adib. **7.** "Layli va Majnun"dostoni qahramoni. **8.** "Xamsa"dagi qahramonlardan biri. **9.** "Alisher Navoiy" kinofilmida Husayn Boyqaro rolini mahorat bilan ijro etgan aktyor. **10.** Ona yurt. **11.** Shoir tomonidan Hirotda qurdirilgan madrasa. **12.** Farhod, Shirin va Shopur obrazlari siymosida mujassamlashgan insoniy sifat. **13.** Navoiy devonlarini XV asrda qayta ko'chirgan mashhur xattot. **14.** Shoir homiyligida kamol topgan rassom. **15.** Navoiy dostoni asosida yaratilgan opera. **16.** Husayn Boyqaro tomonidan Alisher Navoiyga berilgan vazifa, mansab. **17.** Shoir shug'ullangan fanlardan biri. **18.** Shakldor so'zlardan iborat qofiyali she'r. **19.** A.Navoiyning otasi G'iyosiddin Kichkina hokim qilib tayinlangan shahar. **20.** "Xamsa" dostonlari orasida "Hayrat ul-abror"ning uchdan bir qismini egallagan mumtoz she'r unsurlaridan biri. **21.** Navoiy talqinidagi Chin mamlakatining shahzodasi, tosh yo'nuvchi hunarmand. **22.** "Tarixi muluki Ajam" da qayd etilgan qadimgi Eron podshohi. **23.** Shoirga bag'ishlangan asar muallifi, akademik yozuvchi. 24.Toshkentning Navoiy ko'chasidagi madrasa. **25.** Alisher Navoiy nomli teatr binosi loyihasini yaratgan me'mor.

**Tuzuvchi: Shavkat HIDOYATOV.**

MUASSIS
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2017-yil 2-avgustda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR
Faxriddin KARIMOV

TAHRIR HAY'ATI
Mansur Bekmurodov, Begmat Ochilov, Madamin Safarov, Azim Mirzajonov, Mehrinoz Abbosova, Ra'no Shodiyeva, Shodmonqul Salomov, Irina Kochergina – bosh muharrir o'rinbosari ("Молодежь Узбекистана"), Javlon Vafoyev – mas'ul kotib ("Yoshlar ovozi"), Yelena Kalinina – mas'ul kotib ("Молодежь Узбекистана")

Navbatchi
Boboravshan G'OZIDDINOV

Dizayner
Xurshid ABDULLAYEV

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefonlar: (71) 150-22-74, (71) 233-95-97. (71) 233-79-69 (faks)

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi.
Hajmi — 2 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-213
Adadi — 21269
Bosishga topshirish vaqti — 21.00
Topshirildi — 23.45
O'zA yakuni — 23.00

2 3 4 5 6